

## CHO'LPON IJODIDA SO'Z TARTIBI TURLARINING VOQELANISHI

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on  
filiali talabasi*

**Ochilova Muxlisa**

*Ilmiy rahbar*

**Sobirov Anvar**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tilida so'z tartibi va uning turlari, vazifalari; o'zgargan so'z tartibi(inversiya)ning xususiyatlari va vazifalari, she'riy va nasriy nutqda voqelanishi masalalari Cho'lpon ijodi, uning she'riy va nasriy asarlari misolida o'rganilgan va tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *so'z tartibi, to'g'ri tartib, o'zgargan tartib, semantik vazifa, assemantik vazifa, Cho'lpon she'rlari*

So'z tartibi – bu gap bo'laklarining o'zaro muayyan grammatik qonun-qoidalar asosida ma'lum sintaktik-mazmuniy qiymat bilan bog'liq holda joylashishidir. O'zbek tilida so'z tartibining ikki asosiy turi mavjud:

- 1) To'g'ri so'z tartibi
- 2) O'zgargan so'z tartibi ( inversiya)
- 3) Aralash so'z tartibi

To'g'ri tartib bo'yicha o'zbek tilida kesim gapning oxirida, ega gapning boshida keladi. To'g'ri so'z tartibi, asosan, nasriy asarlar nutqiga xos. To'g'ri so'z tartibi ta'sirchan bo'lma, ko'proq xabar berish vazifasini bajaradi. Masalan,

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi.

O'zgargan so'z tartibi – inversiya hisoblanib, bu gap bo'laklarining odatdagi tartibdan o'zgacha holatda joylashishidir. Masalan,

Tut tagida qaynab yotgan choydoshcha

Chaqiradir ishlab yotgan dehqonni [ Cho'lpon, 2007, 33-b ]

Cho'lponning ushbu she'rida ikkinchi misrasida kesim “chaqiradir ” so'zi misra boshida kelgan . Bu inversiya hodisasidir . Uning gapdagi asosiy vazifasi badiiy matnda muallif uslubiy maqsadini amalga oshirishdir. Inversiya uslubiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi, badiiy asarga ko'tarinkilik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi hamda she'riyatda vazn, qofiya, ritm hosil qilishda ishtirok etadi. Shunga ko'ra inversiya 2 xil vazifa bajaradi:

1.Semantik vazifa – gapning biror bo'lagini alohida ta'kidlash yo'li bilan nutqqa emotsional – ekspressiv ruh bag'ishlash

2.Assemantik vazifa – she'riyatda kompozitsiya, ritm , vazn, qofiya hosil qilish [Sobirov, 2020,81-b]

Biz quyida Cho'lpon ijodida so'z tartibini o'rganamiz . Abdulhamid Cho'lpon o'zbek realistik prozasining endi shakllanayotgan davrida ijod qilgan va o'zbek adabiyoti rivojiga o'z hissasini qo'shgan .

Ma'lumki, har bir davr adabiyotining yetakchi xususiyatlari o'sha davr yetishtirgan yirik adabiy figuralar ijodida o'zining mujassam ifodasini topadi. O'tgan asrning birinchi choragidagi o'zbek adabiyotini tom ma'nodagi izlanish adabiyoti deyish mumkin, xuddi shu xususiyat Cho'lponning butun ijodiga xosdir. Tabiatan izlanuvchan adib o'zbek realistik prozasining tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida samarali izlangani, xorijiy adabiyotlarga xos poetik vositalarni milliy adabiyotimizga dadil tatbiq qilgani ma'lum. Ayni choqda, Cho'lpon she'riy va nasriy ijodida mumtoz adabiyotimizga xos tasvir va ifoda vositalariga yangicha jilo berishga intildi [Quronov,2004, 3-b]

Cho'lpon she'riyati o'tgan asrning 20- yillarida adabiy tanqidchilik diqqat markaziga tushib, keskin adabiy – mafkuraviy bahslarga sabab bo'lgan. Uning she'rlarida shoirning yoniq yuragi, olovli shaxsiyati, ta'sirchan ko'ngli, isyonkor tabiati yaqqol ko'rinib turadi:

Tiriksan, o'lmagansan  
Sen-da odam, sen-da inson sen  
Kishan kiyma, bo'yin egma,  
Ki, sen ham hur tug'ilg'ansen [ Cho'lpon , 2007, 1-b ]

Ko'rinib turibdiki , yuqoridagi to'rtlikda so'zlari to'g'ri tartibda joylashgan. Ko'pincha she'rda shoirlar to'g'ri tartibdan sokin, tinch hislarni ifodalash uchun, inversiyadan esa hayajonli , kuchli tuyg'ularni ifodalash uchun foydalanishadi. Lekin Cho'lpon bu she'rida shunchalarjo'shqin , ta'sirchan va isyonkor tuyg'ularni to'g'ri so'z tartibi orqali ifodalagan. Cho'lpon she'rlarida inversiya o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi:

Ko'zimni olaman oy chiqqan yoqqa ,  
Boshlaymen oydan- da seni so'rmoqqa,  
Ul-da aytadirki: "Qizil yonoqqa  
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa [Cho'lpon,2007,5-b]

Yuqoridagi she'rning birinchi misrasida kesim vazifasidagi "olaman", "boshlaymen" , "uchradim" so'zlari inversiyaga uchragan va bu, birinchidan, she'rning ta'sirchanligini, ko'tarinkiligini va badiiy go'zalligini ta'minlagan. Ikkinchidan, qofiya va ritm hosil qilishga xizmat qilgan.

Dengizlar qaynasa, toshsa suvlari  
Kesilsa yo'lchining istak yo'llari,  
Dengizga aylansa o'ng va so'llari,  
Balki yupatgusi ho'llangan ko'zlar ? [Cho'lpon ,2007,19-b]

Cho'lpon she'rlarida inversiya ta'sirchanlik, ko'tarinkilik , ya'ni semantik vazifa bajaradi. Yuqorida keltirilgan misralarni odatiy tartibda o'qiydigan bo'lsak she'rning ta'sirchanligi yo'qolib, badiiy qiymati pasayadi. Lekin Cho'lponning to'g'ri so'z tartibida yozilgan she'rlari ham ta'sirchanligi bilan ajralib turadi:

Xayolim bir uchib ketib qoladir ,  
Men ham tizginini qo'yib beraman .  
Zotan, qandoq qilib tutib turaman ?  
Eng nozik qilimga tegib qoladir . [Cho'lpon , 2007,27-b ]

Ushbu she'r to'g'ri so'z tartibida yozilgan, shunga qaramay juda ajoyib. Bu esa she'rlar faqat inversiyada yoziladi degan qonuniyat yo'qligining isbotidir. Cho'lpon ijodida, asosan, kesim inversiyasi kuzatiladi.

Yiroqlashdim , uzoqlashdim bir necha kun sendan,  
hol so'rab ko'r mendan:  
Nega muncha og'ir keldi bu yiroqlik menga  
anglatayin senga [Cho'lpon, 2007, 17-b]

Shuningdek, Cho'lpon nasrda ham inversiyadan mahorat bilan foydalanib go'zal she'riy misralar yozgan:

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda ? [Cho'lpon, 2000,3-b]

Demak, inversiya faqat nazmda emas, balki nasriy asarlarda ham qo'llaniladi va u asarning badiiyligini, ta'sirchanligini oshiradi, ko'tarinkilik baxsh etadi. Lekin to'g'ri so'z tartibidan foydalanib yozilgan she'rlar ham badiiylilik jihatidan ulardan kam emas. Buni isboti sifatida Cho'lpon she'rlarini ko'rdik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qur'onov D. Cho'lpon nasri poetikasi.– Toshkent:Sharq,2004. – B.209.
2. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. – Toshkent:Sharq,2000. – B.287.
3. Cho'lpon. Buloqlar quchog'ida. –Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2007. –B.48
4. Sobirov A. She'riyatda so'z tartibi.filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. – Samarqand,2020. –B.148